



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 142 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назокат Норматомовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....	116
<b>Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi</b>	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy .....	120
<b>Inomidinova Dildorxon Ikramovna</b>	
O'smirlilik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
<b>M. S. Usmonova</b>	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners .....	130
<b>Tahirova Shaxribonu</b>	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
<b>Хамидова Нигора Тулкуновна</b>	



# O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK RIVOJLANISHNING MUHIM JIHATLARI VA UNING DETERMINANTLARI



M. S. Usmonova

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
 umumiy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'smirlik davrida kuzatiladigan psixologik jarayonlar, ularning shaxs rivojlanishidagi o'rni hamda ushbu yosh bosqichining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'smirlik davri inson hayotidagi murakkab va mas'uliyatli o'tish bosqichi bo'lib, biologik, emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotda o'smirlarning o'zini anglash jarayoni, emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, shuningdek, oilaviy va ta'lim muhitining psixik rivojlanishga ta'siri chuqur o'rganilgan. Shuningdek, o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan psixoprofilaktik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik davri, psixologik rivojlanish, o'zini anglash, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, shaxsiy o'sish, psixologik yordam, ruhiy salomatlik.

**Abstract:** This article examines the psychological processes characteristic of adolescence, their role in personality development, and the distinctive features of this developmental stage from a scientific and theoretical perspective. Adolescence is a complex and critical transitional period in human life, marked by significant biological, emotional, and social changes. The study provides an in-depth analysis of adolescents' self-awareness, emotional instability, challenges in social adaptation, and the influence of family and educational environments on psychological development. In addition, psychoprophylactic approaches and practical recommendations aimed at promoting healthy and harmonious psychological development in adolescents are substantiated.

**Key words:** adolescence, psychological development, self-awareness, emotional stability, social adaptation, personal growth, psychological support, mental health.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психологические процессы, характерные для подросткового возраста, их значение в развитии личности, а также специфические особенности данного возрастного этапа с научно-теоретической точки зрения. Подростковый возраст представляет собой сложный и ответственный переходный период в жизни человека, характеризующийся биологическими, эмоциональными и социальными изменениями. В исследовании подробно анализируются процессы самосознания подростков, эмоциональная неустойчивость, трудности социальной адаптации, а также влияние семейной и образовательной среды на психическое развитие личности. Кроме того, обоснованы психопрофилактические подходы и практические рекомендации, направленные на обеспечение гармоничного психологического развития подростков.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, психологическое развитие, самосознание, эмоциональная устойчивость, социальная адаптация, личностный рост, психологическая помощь, психическое здоровье.

## KIRISH

O'smirlik davri inson ontogenezining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, unda shaxsning biologik, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishi jadallik bilan kechadi. Ushbu davr odatda 11-12 yoshdan boshlanib, 16-18 yoshgacha davom etadi va ko'pincha "o'tish davri" sifatida tavsiflanadi. Bu bosqich bolalikdan kattalikka o'tish jarayonini ifodalab, shaxs hayotida tub burilish yasovchi davr hisoblanadi.

Biologik jihatdan o'smirlik davrida organizmda keskin o'zgarishlar yuz beradi. Gormonal tizimning faollashuvi natijasida jismoniy o'sish tezlashadi, jinsiy yetilish boshlanadi, ikkilamchi jinsiy belgilar shakllanadi. Ushbu fiziologik o'zgarishlar o'smirlarning psixik holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha bu davrda kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, asabiylik, tez ta'sirchanlik va hissiy beqarorlik kuzatiladi.

Psixologik jihatdan o'smirlik davri shaxsning ichki dunyosi shakllanishida hal qiluvchi bosqichdir. Aynan shu davrda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, o'zini anglash (self-konseptsiya), o'z qadr-qimmatini baholash kabi muhim sifatlar rivojlanadi. O'smirlar o'z "Men" obrazini shakllantirishga intiladilar, kim ekanliklari, jami-

yatdagi o'rni qandayligi haqida chuqur o'ylay boshlaydilar. Bu esa ko'pincha ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o'smir bir tomondan mustaqillikka intilsa, ikkinchi tomondan kattalarning qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadi.

Ijtimoiy jihatdan esa o'smirlik davrida muloqot doirasi kengayadi va tengdoshlar bilan munosabatlar yetakchi o'rin egallaydi. O'smir uchun do'stlarining fikri ota-onanikidan ham muhimroq bo'lib qolishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, jamiyat talablariga moslashish jarayoni boshlanadi. O'smirlar o'zlarini turli rollarda sinab ko'rishga harakat qiladilar, bu esa ba'zan xulq-atvorda og'ishlar, tajriba qilish istagi va riskli harakatlar bilan namoyon bo'ladi.

Mazkur davrning yana bir muhim jihati - emotsional sohaning o'zgarishidir. O'smirlar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiyinchilikka duch keladilar. Ular o'z imkoniyatlari va ijtimoiy talablar o'rtasidagi tafovutni chuqur his qiladilar, bu esa tashvish, o'ziga ishonchsizlik, depressiv kayfiyat, yolg'izlik hissini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, idealizm, romantizm, yuqori orzular va kelajakka katta umid bilan qarash ham aynan shu davrga xosdir.

O'smirlik davrida qadriyatlar tizimi ham shakllanadi. Axloqiy qarashlar, hayotiy maqsadlar, dunyoqarash va e'tiqodlar rivojlanib boradi. Bu jarayonda oila, maktab, ommaviy axborot vositalari hamda zamonaviy raqamli muhit muhim rol o'ynaydi. Noto'g'ri ijtimoiy ta'sirlar esa shaxs rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, huquqbuzarlikka moyillik yoki deviant xulq shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar ushbu davrning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda o'smirlarga to'g'ri yondashuvni tanlashlari zarur. Qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish, mustaqillikni rag'batlantirish bilan birga nazoratni saqlash o'smir shaxsining sog'lom rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlik davri psixologiyasi ko'plab mashhur olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ularning nazariyalari ushbu davrning mohiyatini turli nuqtai nazardan yoritib beradi. Xususan, Erik Erikson o'zining psixosozial rivojlanish nazariyasida o'smirlik davrini "identifikatsiya va rol chalkashuvi" bosqichi sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, bu davrda o'smirlar "Men kimman?", "Qanday inson bo'laman?", "Jamiyatda mening o'rnim qanday?" kabi savollarga javob izlaydi. Agar shaxs bu savollarga aniq javob topa olsa, unda mustahkam identitet shakllanadi. Aks holda esa rol chalkashuvi yuzaga kelib, o'ziga ishonchsizlik, kelajakdan qo'rquv va qaror qabul qilishda ikkilanish kabi muammolar paydo bo'ladi. Erikson nazariyasi o'smirlik davrida shaxsiy o'zlikni anglashning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Jean Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davrida tafakkurning yangi bosqichi - formal-operatsion fikrlash shakllanadi. Bu bosqichda o'smirlar abstrakt tushunchalar bilan ishlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, gipotezalar ilgari surish va ehtimollarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Masalan, ular adolat, erkinlik, burch kabi murakkab kategoriyalar haqida chuqur o'ylay boshlaydilar. Biroq aynan shu rivojlanish o'smirning ichki dunyosini ham murakkablashtiradi. Ular o'z hayotini, munosabatlarini va kelajagini tanqidiy baholay boshlaydi, bu esa ichki ziddiyatlar, shubha va emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, Lev Vygotskiy o'zining madaniy-tarixiy nazariyasida shaxs rivojida ijtimoiy muhit va muloqotning hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'smir psixikasining shakllanishi individual jarayon emas, balki ijtimoiy tajriba asosida yuz beradi. Til, muloqot, ta'lim va madaniy qadriyatlar o'smirning fikrlash tarzini va shaxsiy xususiyatlarini belgilaydi. Vygotskiy ayniqsa "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surib, o'smirlar kattalar va malakali tengdoshlar yordamida o'z imkoniyatlaridan yuqoriroq natijalarga erishishi mumkinligini asoslab bergan.

Umuman olganda, ushbu olimlarning nazariyalari o'smirlik davrini kompleks tarzda tushunishga yordam beradi. Erikson o'smirning ichki identitet muammolariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Piaje uning tafakkur rivojini ochib beradi, Vygotskiy esa ijtimoiy muhitning ta'sirini asoslaydi. Shu jihatdan, o'smirlik davrini samarali o'rganish va tushunish uchun biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillarni uyg'un holda tahlil qilish zarur hisoblanadi.

### O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari

O'smirlik davrida quyidagi psixologik xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi va ular shaxsning ichki dunyosida kechayotgan murakkab o'zgarishlarni aks ettiradi:

- 1. Emotsional beqarorlik va kayfiyatning tez o'zgarishi** - o'smirlar ko'pincha qisqa vaqt ichida quvonchdan tushkunlikka, ishonchdan shubha holatiga o'tishlari mumkin. Bu holat biologik (gormonal) o'zgarishlar hamda psixologik bosimlar bilan bog'liq bo'lib, ularning hissiy boshqaruv mexanizmlari hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi.



2. **O'z-o'zini anglash jarayonining faollashuvi** - o'smirlar o'z shaxsiyati, qobiliyatlari, xarakteri va jamiyatdagi o'zni haqida chuqurroq o'ylay boshlaydilar. "Men kimman?" degan savol markaziy o'ringa chiqadi. Bu jarayon o'zlikni shakllantirishning muhim bosqichi bo'lib, ba'zan ichki ziddiyatlar bilan kechadi.
3. **Mustaqillikka intilish va erkinlikka ehtiyojning ortishi** - o'smirlar kattalardan mustaqil qaror qabul qilishni, o'z hayotini o'zlari boshqarishni xohlaydilar. Shu bilan birga, ular hali to'liq ijtimoiy va hayotiy tajribaga ega bo'lmagani sababli kattalar bilan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin.
4. **Tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liqlik** - bu davrda do'stlar va sinfdoshlar fikri o'smir uchun juda muhim bo'lib qoladi. Ular o'zlarini guruhda qabul qilinishini istaydilar, shu sababli ba'zan o'z qarashlaridan voz kechib, guruh bosimiga moslashishlari mumkin.
5. **O'z-o'zini baholashdagi nomutanosiblik** - o'smirlar o'z imkoniyatlarini ba'zan haddan tashqari yuqori, ba'zan esa juda past baholashlari mumkin. Bu esa o'ziga ishonchsizlik yoki, aksincha, asossiz ishonch (ortiqcha ambitsiya)ni yuzaga keltiradi.

Mazkur xususiyatlar o'smirning ichki dunyosida murakkab psixologik jarayonlar kechayotganini ko'rsatadi. Ushbu davrda shaxs bir vaqtning o'zida o'zini izlaydi, jamiyatda o'z o'rnini aniqlashga harakat qiladi va turli ichki hamda tashqi ta'sirlar bilan kurashadi. Shu sababli o'smirlik davrida to'g'ri psixologik yondashuv, qo'llab-quvvatlash va tushunish muhitini yaratish nihoyatda muhim hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini har tomonlama yoritish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv turli metodlarni uyg'un holda qo'llash orqali tadqiqot natijalarining ishonchligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

*Birinchidan*, nazariy tahlil usuli orqali mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar chuqur o'rganildi. Bu bosqichda o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, uning rivojlantirish qonuniyatlari va muammolari yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Nazariy tahlil tadqiqotning metodologik asosini shakllantirishga xizmat qildi.

*Ikkinchidan*, sotsiologik so'rovnomada usuli yordamida 13-17 yoshdagi o'smirlar orasida empirik ma'lumotlar to'plandi. So'rovnomada savollari o'smirlarning emotsional holati, o'z-o'zini baholashi, tengdoshlar bilan munosabatlari hamda mustaqillikka bo'lgan munosabatini aniqlashga qaratildi. Ushbu usul orqali o'smirlarning real hayotiy tajribasi va subyektiv fikrlari o'rganildi.

*Uchinchidan*, psixodiagnostik metodikalar qo'llanilib, o'smirlarning individual-psixologik xususiyatlari aniqlandi. Bu metodlar orqali shaxsning o'z-o'zini baholash darajasi, tashvishlilik holati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari baholandi. Psixodiagnostik natijalar tadqiqotning aniq va o'lchab bo'ladigan ko'rsatkichlar bilan boyitilishiga imkon berdi.

*To'rtinchidan*, suhbat va intervyu usullari yordamida o'smirlarning ichki kechinmalari, fikr-mulohazalari va hayotiy qarashlari yanada chuqurroq o'rganildi. Bu usullar respondentlar bilan bevosita muloqot qilish orqali ularning psixologik holatini yaxshiroq tushunish imkonini berdi. Ayniqsa, intervyu jarayonida o'smirlarning ochiq va erkin fikr bildirishiga sharoit yaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'smirlik davrida quyidagi psixologik xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi va ular shaxsning ichki dunyosida kechayotgan murakkab o'zgarishlarni aks ettiradi:

1. **Emotsional beqarorlik va kayfiyatning tez o'zgarishi** - o'smirlar ko'pincha qisqa vaqt ichida quvonchdan tushkunlikka, ishonchdan shubha holatiga o'tishlari mumkin. Bu holat biologik (gormonal) o'zgarishlar hamda psixologik bosimlar bilan bog'liq bo'lib, ularning hissiy boshqaruv mexanizmlari hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi.
2. **O'z-o'zini anglash jarayonining faollashuvi** - o'smirlar o'z shaxsiyati, qobiliyatlari, xarakteri va jamiyatdagi o'zni haqida chuqurroq o'ylay boshlaydilar. "Men kimman?" degan savol markaziy o'ringa chiqadi. Bu jarayon o'zlikni shakllantirishning muhim bosqichi bo'lib, ba'zan ichki ziddiyatlar bilan kechadi.
3. **Mustaqillikka intilish va erkinlikka ehtiyojning ortishi** - o'smirlar kattalardan mustaqil qaror qabul qilishni, o'z hayotini o'zlari boshqarishni xohlaydilar. Shu bilan birga, ular hali to'liq ijtimoiy va hayotiy tajribaga ega bo'lmagani sababli kattalar bilan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

- 4. Tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liqlik** - bu davrda do'stlar va sinfdoshlar fikri o'smir uchun juda muhim bo'lib qoladi. Ular o'zlarini guruhda qabul qilinishini istaydilar, shu sababli ba'zan o'z qarashlaridan voz kechib, guruh bosimiga moslashishlari mumkin.
- 5. O'z-o'zini baholashdagi nomutanosiblik** - o'smirlar o'z imkoniyatlarini ba'zan haddan tashqari yuqori, ba'zan esa juda past baholashlari mumkin. Bu esa o'ziga ishonchsizlik yoki, aksincha, asossiz ishonch (ortiqcha ambitsiya)ni yuzaga keltiradi.

Mazkur xususiyatlar o'smirning ichki dunyosida murakkab psixologik jarayonlar kechayotganini ko'rsatadi. Ushbu davrda shaxs bir vaqtning o'zida o'zini izlaydi, jamiyatda o'z o'rini aniqlashga harakat qiladi va turli ichki hamda tashqi ta'sirlar bilan kurashadi. Shu sababli o'smirlik davrida to'g'ri psixologik yondashuv, qo'llab-quvvatlash va tushunish muhitini yaratish nihoyatda muhim hisoblanadi.

#### **Muammolar va ularning sabablari**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida quyidagi muammolar keng tarqalgan:

- stress va tashvish holatlari;
- depressiv kayfiyat;
- ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar;
- yolg'izlik hissi;
- o'z-o'zini past yoki haddan tashqari yuqori baholash.

Ushbu muammolar ko'pincha quyidagi omillar bilan bog'liq:

- oilaviy nizolar va hissiy yaqinlik yetishmasligi;
- maktabdagi psixologik bosim;
- tengdoshlar bilan murakkab munosabatlar;
- raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smirlik davrining psixologik jihatdan murakkab va ko'p omilli ekanligini yaqqol tasdiqlaydi. Olingan ko'rsatkichlarni chuqurroq tahlil qilish quyidagi muhim xulosalarga olib keladi.

Avvalo, o'smirlarning 62 foizida tushkunlik holatlarining kuzatilishi emotsional sohadagi muammolarning keng tarqalganligini bildiradi. Bu holat o'smirlik davriga xos ichki ziddiyatlar, o'zlikni anglash jarayonining murakkabligi hamda tashqi ijtimoiy bosimlar bilan izohlanadi. Tushkunlikning yuqori darajasi o'z vaqtida psixologik yordam ko'rsatilmasa, salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Respondentlarning 48 foizi o'zini yolg'iz his qilishi o'smirlarning ijtimoiy aloqalarida muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Garchi bu davrda tengdoshlar bilan muloqot yetakchi o'rin tutsa-da, ichki tushunmovchiliklar, o'zini qabul qilinmagan deb his etish yoki oilaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi yolg'izlik hissini kuchaytirishi mumkin.

53 foiz o'smirlarda emotsional beqarorlikning aniqlanishi esa bu davrning tabiiy psixologik xususiyati bo'lishi bilan birga, ayrim hollarda stress, tashvish va ichki nomuvofiqlikning kuchayganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich o'smirlarning hissiy holatini boshqarish ko'nikmalari hali to'liq shakllanmaganini anglatadi.

O'z-o'zini baholash masalasida esa 35 foiz o'smirning o'zini past baholashi aniqlangan. Bu ko'rsatkich o'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonchi yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Past o'zini baholash ko'pincha muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi, ijtimoiy taqqoslash va tanqidga yuqori sezuvchanlik bilan bog'liq bo'ladi.

Ayniqsa muhim jihatlardan biri shundaki, ijtimoiy moslashuv darajasi past bo'lgan o'smirlarning aksariyati muammoli oilalarda tarbiyalanayotganidir. Bu holat oilaviy muhitning shaxs rivojiga bevosita ta'sirini tasdiqlaydi. Oiladagi nizolar, e'tibor yetishmasligi yoki noto'g'ri tarbiya usullari o'smirning psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida psixologik muammolar ichki ehtiyojlar va tashqi talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi. O'smirlar kattalardek fikrlashga intilsalar-da, emotsional jihatdan hali yetuk emaslar.

Shu bois quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

- individual psixologik yondashuv;
- ijobiy oilaviy muhitni shakllantirish;
- psixoprofilaktik treninglar;
- motivatsion va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng muhim va nozik bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda insonning kelajakdagi hayot yo'li, qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanadi. Ushbu bosqichda yuzaga keladigan psixologik muammolar - emotsional beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik, identitet izlanishlari va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar - o'z vaqtida aniqlanmasa, ular keyingi rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois o'smirlik davrini nafaqat kuzatish, balki faol psixologik qo'llab-quvvatlash zarur bo'lgan davr sifatida baholash muhimdir.

O'smirlar bilan ishlashda ota-onalar, pedagoglar va psixologlar o'rtasidagi uzviy hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oila o'smir uchun birlamchi ijtimoiy muhit bo'lib, undagi sog'lom psixologik iqlim bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi va hissiy barqarorligini mustahkamlaydi. Maktab esa o'smirning ijtimoiylashuv maydoni sifatida uning bilim olish bilan birga, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishida muhim rol o'ynaydi. Psixologlar esa bu jarayonda diagnostika, profilaktika va korreksiya ishlarini olib borib, yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy asosda hal etishga yordam beradi.

O'smirlarga nisbatan individual yondashuvni ta'minlash muhim omillardan biridir. Har bir o'smirning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolari o'ziga xos bo'ladi. Shu sababli ularga bir xil yondashuv emas, balki shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuv zarur. Bu esa o'smirning o'zini tushunilgan va qadrlangan his qilishiga, natijada esa uning ruhiy salomatligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G'. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: Fan, 2005.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni "Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
5. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2008.
6. Internet manbalari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.lex.uz](http://www.lex.uz), [www.scholar.google.com](http://www.scholar.google.com)
7. Komilova N.G'. Xulqi og'ishgan yoshlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2013.
8. Yadgarova G.T., Avlayev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo'llanma). Toshkent, 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.